

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONSYOSH OILALARNING AJRALISHIGA SABAB BO'LUVCHI
OMILLAR: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Munisa Karimova

Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi

Yunusova Saodat To'lanboy qizi

SamDCHTI Kechki fakulteti Filologiya va tillarni

o'qitish(ingliz tili) yo'nalihi 2-bosqich 2324-guruh talabasi


saodatyunusova61@gmail.com

+998934097991



Annotatsiya. Oila bu jamiyatning asosi ya'ni poydevori hisoblanadi. Ushbu poydevorning mustahkamligi buzilsa jamiyat ham qulab tushishi mumkin. Shunga qaramay hozirgi paytda jamiyatimizda ajralishlar soni keskin oshib bormoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizga ham zarar yetkazmoqda. Ushbu maqolada oilalar buzilishlarining sabablari, omillari, uning jamiyatga ta'siri va bu muammoni hal qilish bo'yicha tavsiyalar va yechimlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *oila, jamiyat, farzand, ta'lim-tarbiya, ajrim, bilimsizlik, inqiroz, qiyinchiliklar, ajralishlar.*



Oila bu jamiyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyat ko'plab oilalar birlashmasidan iborat. Oila nafaqat erkak va ayolning nikoh bilan birlashuvi, balki ularning ruhan, aqlan birlashuvi hisoblanadi. Agar oila mustahkam bo'lmasa bu holat jamiyatning buzilishiga olib kelishi mumkin. Chunki oilalar notinch bo'lsa, har doim er va xotin o'rtasida urush bo'laversa bu jamiyatga ham o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Achinarlisi shuki, bu holat jamiyat uchun ijobjiy emas balki salbiy oqibatlarga olib keladi. Shunga qaramay hozirda ajralishlar sonining ortib borishi kundan kunga ko'paymoqda.

Amerika olimlari tadqiqotiga ko'ra, ajrashganlar turli avtohalokatlarga uch baravar ko'proq duch kelishadi. Ular alkogolizm va turli kasalliklarga ko'proq moyil bo'ladi, shuningdek, o'lim darajasi, o'z joniga qasd qilishlar soni ularda turmush qurbanlarga qaraganda ancha yuqori ekani aniqlangan. [2]

Ajralishlar nafaqat er va xotin hayotiga, balki bolalar hayotiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Ota-onaning ajralishi tufayli ularda psixologik uzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda ular o'zini odamlar olib qochadigan, doim yolg'iz yuradigan va hattoki o'z ota-onasiga bo'lgan mehr-muhabbat ham yo'qolishi mumkin. Bunday bolalar kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishiga qiyinchilik sezishlari mumkin.

Oilalar parchalanishining ortib borishiga bir nechta omillar va sabablar mavjud. Bular:

1. Erta turmush. Biz bilamizki erta turmush qurban yoshlarning ko'pchiligi hali hayotda uncha ko'p qiyinchilik ko'rмаган bo'lishadi. Ular har bir ishida ota-onasidan ko'mak so'ragan, moliyaviy tomondan ham ota-onasiga muhtoj yoshlар bo'lishadi. Bu



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

esa ularni erta turmush qurgandan so'ng oilasini ta'minlay olmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, erta turmush qurbanlarning ko'pchiligi hali oila haqida, undagi qiyinchiliklar haqida to'liq bilim va ma'lumotlarga ega bo'lishmaydi yoxud kattalar tomonidan o'rgatilmaydi. Ayni shu sababli erta turmush qurban yoshlarning ajralishlar soni yuqori hisoblanadi.

➤ **Yillik ko'rsatkichlar:** 2023-yilda 49,2 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan.

➤ **Yarim yillik ko'rsatkichlar:** 2024-yilning yanvar–iyun oylarida 22,5 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan.

➤ **Choraklik ko'rsatkichlar:** 2024-yilning yanvar–mart oylarida 11,5 mingta nikohdan ajralish holati qayd etilgan. [1]

Yuqorida ko'rsatkichlar O'zbekistonda 2024-yilgi ajrimlar sonini oshib borishini ko'satmoqda. Bu esa juda yomon.

2. Oilaviy nizolar. Oilalar parchalanishing sabablaridan yana biri bu oilaviy nizolar hisoblanadi. Bunda er-xotin o'rtaсидаги kelishmovchiliklar, urushlar sabab bo'ladi. Yana biri esa rashk sabablidir. Ayollar erlarini bo'lar bo'lmasga boshqa ayollardan rashk qilishi sababli ko'plab oilalar buzilib ketyapti. Yoki aksincha, erlar xotinlarini ular bilan birga ishlaydigan kasbdoshlaridan rashk qilib ishlamaslikka, uyda o'tirishga majburlashadi. Natijada esa bir oila barbod bo'ladi.


Dunyo miqyosida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'ssatadiki, rashk sababli yuzaga keladigan ajralishlar umumiyligi ajralishlarning 1,5 foizini tashkil etadi. [3]

3. Moddiy va iqtisodiy qiyinchilik. Hozirda er-xotin ajralashuvining asosiy sabablaridan biri bu moddiy qiyinchiliklardir. Oila qurgach xotinining moddiy, manaviy xohishlarini qondirish kerak bo'ladi. Ammo ayrimlar bularni mensimagan holda ish tutishadi. Oиласига камдан-кам етібор қыладынан erkaklar bor. Улар pullarining ko'p qismini do'stlari bilan yeb ichishga, kayf-u safo qilishga sarflashadi. Natijada ayollar bu holatga jidolmaydi va oila parchalanadi.

O'zbekistonda ajralishlarning sabablari orasida moddiy qiyinchiliklar muhim o'rincutadi. 2022-yilda yosh oilalarning ajralishiga olib kelgan omillar tahlil qilinganda, 15% holatlarda moddiy qiyinchiliklar sabab bo'lgani aniqlangan. [4]

AJRIMLAR SONI

[5]



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Yuqorida Angliya handa O'zbekiston davlatlaridagi ajrimlar sonining yildan yilga yuqorilab borayotganini ko'rishingiz mumkin.

Oilalarning ajrimlarining sabalari mavjud bo'lsa, bu sabablarga yechimlar va maslahatlar ham mavjud. Aytishadiku, "Yaxshi bor joyda, yomon ham bo'ladi" deb. Bu muammoni hal qilishga bir nechta yechimlar va maslahatlarni sizlarga taqdim etmoqchiman. Bular:

1. Yoshlarning ma'naviy boyligini oshirish. Yoshlarga yoshligidan ko'proq bilim olishiga, ularning ma'naviy boyligini oshirishi uchun ko'proq kitoblar o'qishiga targ'ib qilishimiz kerak. Bundan tashqari yoshlarga diniy bilimlarni ham o'rgatishimiz kerak bo'ladi. Agar ular yoshlik chog'idan ma'naviy boyligini oshirsa, turmush qurgandan so'ng oilaning mashaqqatlariyu qiyinchiliklariga chidamli bo'ladi.

2. Oilalar bilan alohida ishlash. MFY hamda ma'sul shaxslar jar yoqasiga kelgan, ajralishlari mumkin bo'lgan har bitta oila bilan alohida shug'ullanishlari kerak bo'ladi. Bunda ular ajrashish sabablarini, oilaning yetishmovchiliklarini o'rganishlari hamda ularga oilani saqlab qolish haqida maslahatlar berislari kerak. Shunda oilalar ajralishlari soni kamayadi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, oila bu muqaddas dargoh. Uning buzilishi barcha uchun ayanchlidir. Har bir oila jamiyat uchun muhimdir. Ammo oilalarni saqlab qolish nafaqat hukumatga balki siz-u bizga ham bog'liqdir. Oilalarni asrab qolish uchun qo'limizdan kelgan barcha ishni qilaylik. Agar siz bitta oilani saqlanib qolishiga sababchi bo'lsangiz, bir muqaddas dargohni saqlab qolgan bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Daryo](#)
2. https://ijtimoiy.uz/2347/?utm_source=chatgpt.com
3. [Кун.uz](#)
4. [Йопилар овози](#)
5. [Daryo. Кун.uz](#)